

1-iyun – Xalqaro bolalarni himoya qilish kuni

XP

Tong yulduzi

Vatan yagonadir,

Vatan bittadir!

N:22 (67031)

2015-yil

1-iyun



www.tongyulduzi.uz

Gazeta 1929-yil 1-avgustdan chiqa boshlagan

O'zbekiston Respublikasi bolalar va o'smirlar gazetasi

ISSN – 2010-6092

BAXTLI YURTNING BAXTIYOR BOLASI

Yorug' kelajagimiz, g'urur va iftixorimiz, aziz BOLAJON!

Sen O'zbekiston deya atalmish osmoni tinch, zamini zar diyorning baxtli, baxtiyor fuqarosisan! Baxting shundaki, dunyoning eng go'zal, tinch, osuda mamlakatlardan birida tug'ilding, buguning, kelajaging haqida qayg'uradigan bolajon xalqimiz, hukumatimiz ardog'ida sog'lom, bilimli, barkamol bo'lib voyaga yetyapsan.

Beg'uborlikka timsol bolajon, sening har bir kuning shodlik, baxtiyorlik! Mitti yuragingdag'i oppoq orzularing varralar qanotida ko'kka bo'yaydi, jajjigina musaffo qalbing dunyolarga tirkak bo'ladi. Munchoqdek ko'zlarining nurlu keljakning aksi jilvalanadi...

Baxtli yurtning baxtli bolasi,
Baxtdan masrur yursa yarashar.
Ko'zlariga boqing ularning,
Ko'zlarida kelajak yashar!



BIZ - BITIRUVCHILARMIZ

Bugun maktabni bitirish ostonasida turgan aziz tengdoshim!

Mana, to'qqiz yil mobaynida sho'xliklarimizga guvoh bo'lgan qadrii maskanimiz – maktabimizdan uchirma bo'lish arafasida turibmiz. Ularning qatorida men ham borligimdan quvonaman, albatta. Bitiruvchi sinf bolganimiz bois, ustozlarimiz kash tanlashimizga alohida e'tibor berishdi. Bunga doir test savollari, og'zaki savol-javoblar bo'lib o'tdi. Men kelgusida jurnalist bo'lismi orzu qilaman. Har bir kasning o'ziga yarasha mas'uliyati borligini yaxshi bilaman, ammo jurnalist har bir sohani yaxshi biladigan, tushunadigan shaxs bo'lishi kerak. U shifokor bilan shifokordek, agronom bilan agronomdek, o'qituvchi bilan o'qituvchidek, bola bilan esa bola bo'lib suhabatlashishi lozim.

Bugun hamma bizga ulkan ishonch bilan qaramoqda. Bu ishonchning zamirida ona yurtga bo'lgan sadoqat, xalqimizga bo'lgan hurmat-ehtirom yotadi. Men kelgusida yurtimiz qadriyatlarni, urfatolarini dunyoga taratadigan inson bo'lib yetishishni orzu qilaman. Men singari maktabni bitirish arafasida turgan do'stlarimga esa, omad va yana omad, degim keladi.

*Majtuna SIROJIDDINOVA,
poytaxtimizning Mirzo Ulug'bek tumanidagi profilli mehnat ta'lumiga ixtisoslashtirilgan davlat
umumta'lum maktabining 9-«B» sinf o'quvchisi*

«KAMALAK» YULDUZI

Maknuna. Bu ismni eshitganingizda ko'z oldingizga ushbu taxallus
ostida ijod qilgan shoira Nodirabegim kelishi, tabiiy. Bizning
Maknuna bugunning ijodkor yoshlariidan biri.



kamalakning rangin jilosi... osoyishta mamlakatning baxtli bolalari... Barchasi plastik materialdan ishlangan mo'jaz asar kishini hayratga soladi.

Hozirda inglez tiliga chiqurlashtirilgan sinf o'quvchisi matematika fanidan imtihonni a'loga topshirdi. Ustozlari Dilorom opa Yusupova va Nargiza Mamatovalarga bergan va'dasini oqlashi kerak. Oldida turgan inglez va rus tilidan imtihonlarni ham a'loga topshirishga harakat qilyapti. Ustozlar ishonchi unga kuch bag'ishlashini esa hamisha his qilib turadi.

Poytaxtimizning Yashnobod tumanidagi 206-umumta'lum maktabining 5-«A» sinfini tamomlagan Maknuna Ozodaliyeva maktabning a'lochilaridan sanaladi. Badiy kitoblar mutolaasi uning sevimli mashg'uloti. Hatto dugonalar Mahfuza va Sevinch bilan yogzi ta'tilda ko'p kitob o'qish bo'yicha musobaqaqalashishga kelishi olishdi.

Maknuna ishtirokida tadbirlar har safar uning g'alabasi bilan yakunlanadi. Dastlab, «Ibratli qiz» bellashuvida sindoshlari orasida «Eng pazanda qiz» nominatsiyasi bilan taqdirlandi. «Vatan, do'stlik va xalqparvarlik uchun» shiori ostida tashkillashtirilgan tuman «Kamalak» bolalar tashkilotining XIV anjumanida «Matbuot – 2015» yo'naliishida g'olib bo'ldi. Maknuna otasi va ukasi Bobur bilan birlgilikda yasagan «Kamalak»ning ramziy belgisi hay'at a'zolari tomonidan yuqori baholandi. Yer shari, undagi O'zbekiston xaritasi, kurrai zaminni o'rab turgan

Unda poytaxtimizning 11 tumanidan kelgan yosh avtoinspektorlar yo'l harakati qoidalari yuzasidan bellashdilar.

Nazoratchilar velosipedni qoidalib boshqarish, safda yurib o'z shiorlarini namoyish qilish, radio to'lg'ini bilan boshqariladigan transport vositalarining qoidalib harakati, yo'llarda baxtsiz hodisa sodir bo'linda birinchi tibbiy yordam ko'rsatish, yo'l harakati qoidalari o'zlashtirish bo'yicha test sinovlaridan o'tish, tartibga solingen chorraha maketini tayyorlash kabi sinovlardan o'tdilar. Ushbu musobaqaada eng yuqori ball to'plagan poytaxtning Yunusobod tumanı vakkili olyi o'ringa sazovor bo'lib, bu yil iyun oyida yosh avtoinspektorlarning Samarqand shahridagi Respublika birinchiligi uchun o'tkaziladigan musobaqlarda qatnashish huquqini qo'lga kiritdilar.

Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleysi tomonidan 2010-yilda rasman e'lon qilingan «Yo'l xavfsizligi uchun harakatlar o'n yilligi» tashabbusini dunyoning 60 dan ortiq mamlakatlari qo'llab-quvvatladidi. Chunki ushu tashabbus millionlab odamlarning hayotini saqlab qolish maqsadida uzoq muddatli harakatlar uchun keng imkoniyatlar yaratdi. O'zbekiston Respublikasi ham ushu xayrli tadbirni qo'llab-quvvatlab, uning 2011- va 2013-yillarda o'tkazilgan 1- va 2-haftaliklarida faol ishtirot etdi.

Bu yil BMT tomonidan bolalar uchun yo'l harakati xavfsizligini ta'minlashning 3-haftaligi e'lon qilindi. Ushbu haftalik dunyoning turli mamlakatlarda «Bolalar hayotini asraylik!» shiori ostida o'tkazildi. O'zbekiston Respublikasi ham bu muhim tashabbusni qo'llab-quvvatlagan holda bolalar uchun «Yo'l harakati xavfsizligi oyligi» e'lon qildi. 2015-yilning 14-may kunidan boshlab respublikamiz hududida «Bolalar hayotini asraylik!» shiori ostida tadbirlar boshlandi.

«Yashil chiroq» musobaqlarini Toshkent shahar yosh avtonazoratchilari boshlab berdilar.

Poytaxtimizning Sergeli tumanidagi umumta'lum maktablarida

«MAHORAT MAKTABI»

seminari bo'lib o'tdi.

264-umumta'lum maktabiga tumandagi 19 ta ta'lum muassasalaridan o'qituvchilar tashrif buyurishib, bevosita dars jarayonini tahlil qilishdi. Maskanning ilg'or pedagoglari Aleksandr Yaxyayev, Nina Zaporojets, Madina Mahkamova, Olga Labutina, Gulshoda Toshtemirova, Olga Turabayeva va Zuhra Malikova, Feruza Ashirovalova zamonaviy texnologiyalardan keng foydalaniib, o'quvchilar bilan didaktik o'ynlar o'tkazishdi. Shuningdek, ochiq darslar rang-barang ko'rgazmali qurollar vositasida tashkillashtirildi.

Noan'anaviy darslar o'quvchilarning mantiqiy fikrlashi va hozir javobligini rivojlantirar ekan, bu kabi amaliy seminarlar o'qituvchilarning ijodiy faoliyini oshirishda, ilg'or tajribalarini pedagoglar o'rtasida keng ommalashtirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Shuningdek, tumandagi 322-umumta'lum maktabida ham «Ta'lum sifati va samaradorligini oshirishda zamonaviy pedagogik texnologiyalardan foydalanshi» mavzusiga oid «Mahorat maktabi» o'quv-seminari bo'lib o'tdi. Ona tili va adabiyot fani yo'naliishidagi tadbirning birinchi qismida o'qituvchilarga nazariy bilimlar berish muammolariga doir RTM bo'lim boshlig'i O. Yusupova, filologiya bo'limi bo' metodisti G. Ziyodullayeva hamda Toshkent shahar XTBB uslubchisi G. Mamanbayevalar ma'ruzalar qilishdi. 286-umumta'lum maktabi vakili Dilfuza Mannopova, 277-ta'lum muassasasi o'qituvchisi Go'zal Xannonova, 135-umumta'lum maktabidan Mukambar Oripovalar ilg'or pedagogik texnologiyalar bo'yicha dars ishlamalarini yaratish va dars jarayonida unumli foydalish yuzasidan «Rivojlaniruvchi ta'lum texnologiyalari», «Shaxsga yo'naltirilgan pedagogik texnologiyalar», «Tadqiqotchilik texnologiyalari», «Ta'lum jarayonini faollashtirish va jadallashtirishga yo'naltirilgan pedagogik texnologiyalar» mavzularini slaydlar orqali namoyish etishdi.

O'z muxbirlarimiz

Mirobod, Bektemir, Yashnobod tuman yosh avtonazoratchilari uchinchli o'ringa sazovor bo'lishdi.

Musobaqa g'oliblari bir qator tashkilotlarning faxriy yorliq, esdalik sovg'alarini bilan taqdirlandilar.

Tohir MULLABOYEV,

O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan jurnalist



Yaqında tumanimizda maktab o'quvchilari o'ttasida

«SERQUYOSH HUR O'LKAM»

mavzusida ko'rik-tanlov o'tkazildi.

Unda ishtirokchilarning o'zları istiqomat qilayotgan hududning tarixi, o'ziga xos tabiat haqidagi bilimlari sinovdan o'tkazildi. Barcha shartlardan muvaffaqiyatlari o'tib, eng ko'p ma'lumot to'plagan o'quvchilar g'oliblikni qo'lg'a kiritishdi.

Ular orasida maktabimiz o'quvchilari ham borligi bizni behad quvontirdi. Rushana G'aniyeva, Rushana Olmosova, Sarvina Davlatova, Farangiz Omonova kabi maktabdoshlarimiz endi ko'rik-tanloving viloyat bosqichida tumanimiz sharafini himoya qiladilar.

Mohiniso BOBOQULOVA,

Samarqand viloyati, Pastdarg'om tumanidagi 18-umumta'l'm maktabining 8-«A» sinf o'quvchisi

«KAMALAK» SARDORLARI TAQDIRLANDI

Bugun «Kamalak» YOIH hamda uning horimligidagi «Kamalak» bolalar tashkiloti haqida bilmaydigan o'quvchi oramizda topilmasa kerak.

Ayniqsa, «Kamalak» bolalar tashkiloti tomonidan amalga oshirilayotgan ishlar biz yoshlarni kelgusida yetuk va komil inson bo'lib voyaga yetishimizga, orzularimiz sari ildam qadam qo'yishimizga zamin yaratmoqda.

«Kamalak» bolalar tashkilotining XIV anjumanida Toshkent shahar, Shayxontohur tumanida o'tgan o'quv yili davomida amalga oshirilgan ishlar uchun boshlang'ich tashkilot sardorlari, yetakchilari hamda tuman sardorlari tashkilotning tashakkurnoma va esdalik sovg'alari bilan taqdirlanildilar. Anjuman doirasida maktab o'quvchilarining ijodiy ishlari, rasmlari, zardo'zlik buyumlaridan ko'rgazma tashkil etildi.

Muxsina MIRZAYEVA,
poytaxtimizning Shayxontohur tumanidagi 84-umumta'l'm maktabining 6-«B» sinf o'quvchisi

YANA TA'TIL BOSHLANDI!!!

Bolajonlar, mana, o'quv yili ham yakunlanib, ta'til kunlari boshlandi.
Papka-yu darsliklarni bir chekkaga qo'yib, mazza qilib dam olishni o'layotganingiz aniq.

O'quv yili mobaynida aqlingizni charxlab, ustozlariningiz-u ota-onangizni ranjitmaslik niyatida ter o'rkananigiza ishonamiz. Ayrim tengdoshlarining ta'til kunlarida nima qilishlarini hozirdanoq rejalashtirib qo'yishgan. Keling, ular bilan yaqindan tanishaylik:

Shahzodxon MUHAMMEDOV, Shayxontohur tumanidagi 20-umumta'l'm maktabi o'quvchisi:

— Sportning suzish turiga juda qiziqaman. Shu bois, Olmazor tumanidagi «Maxsus bolalar va o'smirlar olimpiya zaxiralari» sport maktabiga a'zo bo'ldim. Ustozim Nadejda Viktorovnaning murabbiyligida 6 yil davomida turli musobaqalar, bellashuvlarda qatnashdim. Jumladan, joriy yilda «Umid nihollar» sport musobaqalarining tuman, shahar bosqichlarida faxrlri o'rinnarni qo'lg'a kiritdim. Kelgusida bundan-da yuksak marralarni zabt etish niyatidaman. Avgust oyida suzish bo'yicha o'tkaziladigan xalqaro musobaqa qatnashish orzum bor.

Nigora AHMADOVA, Dilnoza QODIROVA, Tursunoy ABDURAHMONOVA, Navoiy shahridagi 16-IDUMning 4-«G» sinf o'quvchilari: — Biz uch dugona bo'sh vaqtlarimizda rasmlar chizamiz. Ularning ayrimlarini sevimli tahririyatimiza jo'natyapmiz. Ta'til kunlarida badiiy kitoblar o'qib, o'qiganlarimiz asosida rasmlar chizishga ahd qildik.



Ta'til chindan ham ajoyib. Asosiysi, bo'sh vaqtinigizni behuda o'tkazmang, hunar o'rganing, turli badiiy kitoblar mutolaa qiling. O'rganganlariningizni, o'qiganlariningizni biz bilan o'retoqlashing.

Ozoda TURSUNBOYEVA tayyorladi

1-iyun 2015

Ingliz tilini o'rganamiz!

Lesson 38

ADJECTIVE OR ADVERB?

(Sifatmi yoki ravish?)

Choose the correct item:

- He (correct, correctly) defined the terms. The answer sounded (correctly, correct).
- She (quickly, quick) adjusted the fees. She adapted (quick, quickly) to any situation.
- He measured the floor (exact, exactly). They proved to be (perfectly, perfect) (exact, exactly) measurements.
- Her voice sounds (beautifully, beautiful). She sang the song (exact, exactly) as it was written. We heard it (perfectly, perfect).
- He was a very (sensibly, sensible) person. He acted very (sensible, sensibly).
- Mike wrote too (slow, slowly) on the exam. He always writes (slow, slowly).
- Talk (softly, soft) or don't talk at all. The music played (softly, soft).
- The mechanic's tools were (well, good). The foreman said that his work was (good, well) done.
- He did not pass the course as (easy, easily) as he thought he would.
- I find this novel very (interesting, interestingly). It was (interesting, interestingly) written.

FIND YOURSELF

(O'zing top)

Separate the words to their groups:

Strawberry – fruit

Newspaper –

Carrot –

Green tea –

Book –

Cabbage –

Cherry –

Milk –

Chair –

Frame –

Beet –

fruit

vegetable

drink


wood

paper

HOW DO YOU SPEND YOUR SUNDAY?

(Yakshanbani qanday o'tkazasiz?)

On Sundays, Davron gets up at 9 o'clock. Then he reads his newspaper in the kitchen. He has breakfast at 9.30 and then he telephones his mother in Fergana. In the afternoon, at 13.00, Davron plays tennis with his sister and after that, they eat dinner in a restaurant. At 16.00, Davron swims for one hour and then he goes by bike to his brother's house. They talk and listen to music. Davron watches television in the evening and he goes to bed at 22.00



True or False?

- | | | | |
|---|-------------------------------------|------|-------|
| 1. Davron gets up at 9am on Sundays. | <input checked="" type="checkbox"/> | True | False |
| 2. Davron reads the newspaper in the lounge. | <input type="checkbox"/> | True | False |
| 3. His father lives in Fergana. | <input type="checkbox"/> | True | False |
| 4. Davron plays tennis with his sister. | <input type="checkbox"/> | True | False |
| 5. Davron and his sister eat before playing tennis. | <input type="checkbox"/> | True | False |
| 6. Davron goes swimming at five o'clock. | <input type="checkbox"/> | True | False |
| 7. Davron drives to his brother's house. | <input type="checkbox"/> | True | False |
| 8. Davron and his brother listen to music. | <input type="checkbox"/> | True | False |
| 9. Davron goes to bed at 22.00 | <input type="checkbox"/> | True | False |

«ADABIYOTGA E'TIBOR - MA'NAVIYATGA, KELAJAKKA E'TIBOR» SHIORI OSTIDAGI



KITOBXONLAR BAYRAMI

Respublikamiz aholisining, ayniqsa, yosh avlodning ma'naviy va intellektual ehtiyojlarini qondirishda kitobning o'rni va ahamiyatini yanada kenga' rish q'ali ona Vatanga yuksak muhabbat va sadoqat ruhida tarbiyalashga hissa qo'shish, kitobxonlik madaniyatini yuksaltirish, yozuvchi va o'qувчи о'rtasidagi muloqotni kuchaytirish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi, O'zbekiston matbuot va axborot agentligi tomonidan bir qator vazirlik va idoralar bilan hamkorlikda joriy yilning 28-30-may kunlari Qoraqalpog'iston Respublikasi va barcha viloyatlar markazlarida hamda Toshkent shahridagi G'afur G'ulom nomidagi madaniyat va istirohat bog'ida «Adabiyyotga e'tibor - ma'naviyatga, kelajakka e'tibor» shiori ostida Respublika «Kitob bayrami» bo'lib o'tdi.

Sayl tarzida tashkil etilgan bayram tadbiralarida adabiy-badiiy, ijtimoiy-siyosiy hamda ensiklopedik yo'nalishdagi kitoblarning taqdimotlari, «Keksalarni e'zozlash yili» Davlat-dasturida belgilangan vazifalar targ'ibotiga bag'ishlangan nashrlar namoyishi, «Namunaviy kitob do'konni» va «Yilning eng yaxshi kitobi» respublika ko'rlik-tanlovi g'oliblarini tantanalni taqdirlash marosimi hamda taniqli adib va shoirlar bilan uchrashuvlar, sovrinli viktorinalar, san'at ustalarining konsertlari o'tkazildi. «Kitob bayrami» doirasida, shuningdek, «Kitob - millatning bebafo madaniyi va ma'naviy merosi» mavzusidagi uchinchi ilmiy-amaliy konferensiya ham bo'lib o'tdi.

Uch kun davom etgan ma'naviy-ma'rifiy tadbirda yurtimizning yetti yoshdan yetmish yoshgacha bo'lgan barcha kitobsevarlari ishtirok etib, olam-olam taassurotlar olishdi.

Fotima va Zuhra: - Birgalikda o'qiyimiz, - deydi.

Kitobni qadrlamoq kerak, bu tafakkur qasriga izzat-ehtirom bilan qadam qo'ymoq lozim.

GERSEN

Kitob - boylik. Lekin sotib olingani emas, o'qilgani.

A. MUXTOR



SOG'INAMIZ SENI, MAKTAB!

Poytaxtimizning Chilonzor tumanidagi 138-umumta'lum maktabida «Xayr maktab, salom kollej!» tadbir bo'lib o'tdi.

Tadbirda Chilonzor tumani hokimi o'rinosari, «Xotin qizlar qo'mitasiga» raisi M. Saidikromova, tuman XTMFMT va Te bo'limi ma'naviy-axloqiy tarbiyalash sho'ba rahbari J. Abdiyeva, «Katta Qozirobod» MFY raisi Abdurahim Tojiboyev hamda faxriy o'qituvchilar qatnashdi.

Maktab bitiruvchilari o'quvchilik yillardagi qiziqarli damlarni bir-bir eslashdi. Jonajon maskan bilan xayrashar ekan, kelgusini qaysi soha egasi bo'lismasini, o'zlar uchun qadri dargohni, aziz ustozlarni tez-tez yo'qlab turishga kelishib olishdi.

Tadbir davomida o'quv yili davomida fan olimpiyadalarini, ko'rlik-tanlovlarning faoliyatlari qatnashib, 100 ming so'mlik cheknini yutib oldi. Endi u nashriyotdan ko'rsatilgan qiymatda kitoblar xarid qilish imkoniyatiga ega.



«Eng faol o'qувчи», «Orasta qiz», «Zulfiyaxonim izdoshi», «Ingliz tili bilmadoni», «Maktabimiz faxri» nominatsiyalari bo'yicha taqdirlanishdi. Milliy va vatanparvarlik ruhidagi she'r, kuy-qo'shiq va raqslar tadbirga fayz bag'ishlidi.

Ha, aytmoqchi, «Kitob bayrami»da mazkur maktab bitiruvchisi Nuriddin Faxriddinov «O'zbekiston» NMIU tomonidan «Omadli kitobxon» lotoreya o'yninida qatnashib, 100 ming so'mlik cheknini yutib oldi. Endi u nashriyotdan ko'rsatilgan qiymatda kitoblar xarid qilish imkoniyatiga ega.

SEVSANG, CHIN SEV VATANNI!

Kechalar yorug' bo'lar,
Dilga iliq his to'lar.
Sevsang, chin sev Vatanni,
Qadamingdan gul unar.

Buyuk Ipak yo'lida,
Belda belbog'i mahkam.
Istiqloli porloqdir,
Bo'lmaydi hech kimdan kam.

Jannatmakon yurtimning,
To'rtko'ldek ma'vosи bor.
Avlodlari barkamol,
Unga baxt-u iqbol yor.

Muhina IBRAGIMOVA,
Qoraqalpog'iston Respublikasi,
To'rtko'l tumanidagi 8-umumta'lum
mabitining 7-«A» sinf o'quvchisi

YURT QIZIMAN

Porla, Quyosh, yurtimga ko'z tegmasin,
Ozod Vatanimning yorqin iziman.
Sirdaryo, Amuday jo'shar yuragim,
Kelajagi buyuk yurtning qiziman!

Sabr - tosh, shukurlar bor-u yo'g'ingga,
Bobolar hokida unar orzuman.
Ming jon bo'lsa kamdir sadqa poyingga,
Kelajagi buyuk yurtning qiziman!

Dilda ertalikning orzu-o'yлari,
Ko'ngiliga huzurdir elim kuylari.
Samoda porlagan kichik yulduzman,
Kelajagi buyuk yurtning qiziman!


O'g'iloy IBRAGIMOVA,
To'rtko'l industrial pedagogika
kasb-hunar kolleji o'quvchisi

Mening qishlog'im go'zal,
«Oltin vodiy» atalar.
Bug'doy-u paxtasi mo',
Qovunlari biram zo'r.

Tekis, ravon yo'llari,
Turnaqator uylari.
Dalalarda timmaydi,
Fermer-u dehqonlari.

Siz ham yozda kelsangiz,
Qishlog'imni ko'tsangiz,
Rosa mehmon qilamiz,
Anhorda cho'milamiz.

Dilmurod YO'L DOSHEV,
Jizzax viloyati, Do'stilik tumanidagi 17-boshlang'ich ta'lum
mabitining 4-«V» sinf o'quvchisi



Yuragimda yonar baxt,
Gullar taqib keldi yoz.
Liboslari to'ya taxt,
Oymoma ham kuldil soz.

Bulbular kuylар alqab,
Bolarilar jo'mavoz.
Oftob kular charaqlab,
Shunday go'zal bizning yoz.

Suvlar tiniq, kumushdir,
Baxt bu obod turmushdir.
Shunday Vatan bor bo'lsin,
Baxtlar doim yor bo'lsin!

Gullar taqib kelsin yoz,
Chigirkalar chalsin soz!

Xalq ta'limi vazirligi tasarrufidagi filologiya fanlariga
ixtisoslashtirilgan davlat umumta'lum mabitining
6-«E» sinf o'quvchisi



BOSHIGA KO'TARAR

Vatanimning
O'g'il-qizlari.
Istaidy yorug'
Bo'lsin yuzlari.

Farzandlik burchin
Bajarib halol.
Qalb amrin ado
Etar bemalol.

Tabiatga chin
Mehribon bo'lib.
Qushlarni asrar
Qadrdon bo'lib.

Har qarich yerni
Qilsa kim chaman.
Uni boshiga
Ko'tarar Vatan.

QARIYALAR DUOSI

Avtobusga chol-u kampir,
Munkillashib chiqar bazo'r.
O'rinni tez bo'shataman,
Keling, deb joy ko'rsataman.

Yosh boladay yetaklashib,
Go'yo atak-chechaklashib.
Bir-bir do'q-do'q bosib hassa,
O'tirishar sekin-asta.

Ko'ngillarin birrov xushlab,
Qo'llaridan tezda ushlab.
Manziliga yetgan hamon,
Kuzataman eshik tomon.

Qariyalar qushday yengil,
Duolari shingil-shingil.
Ezgu ishdan dilim toza,
Hammadan ham menga mazza!

BOQIVOV UYALDI

(Zamonaviy ertak)



H. HAMIDULLAYEV o'lgan taraf

Qadimda emas, shu o'zimizning zamonda
Boqivoy degan bola bor ekan. Negadir u shu
kunlarda sal hafsalasiz bo'lib qolibdi. Ertal
bilan zo'rg'a turib, chala-chulpa yuvindibdi,
choyini ham apil-tapil ichib, maktab
tomon yo'l olibdi. Darslarda ham
bevarpo o'tirgan uchun ustozidan
dakkiyam eshitibdi. Maktabdan qaytib,
tushlik qilib bo'lgach, televizor ko'ribdi.
Hecham dars tayyorlagisi kelmadbi.
Chunki ustoz koyiganidan jahli chiqqan
edi. Kechki payt onasi: - Darslaringni
bajardingmi? - deb so'raganda: - Ha, bajardim,
- deb yolg'on gapirdi. Keyin esa mazza qilib uxladi. Ertasi kuni uy vazifalarini
bajarmay, maktabga ravona bo'ldi. Tayyorgarligi yo'qligi uchun hamma fandan «2»
baho oldi. Maktabdan xomush qaytib kelsa, uyda otasi o'tirgan ekan.
- Ha, o'g'lim, keldingmi, bugun necha baho olding? - deb so'radi otasi.
Boqivoy bo'lsa nima deyishni bilmay: - «Besh», - dedi astagina.
Dadasi xursand bo'lib: - Qani, kundaligning olib kel-chi, - dedi.
Boqivoy qo'rqa-pisa kundaligini otasiga uzatdi. Unda naq to'rtta «2» baho turardi.
Otasi indamay kundalikni o'liga uzatdi. So'ngra: - Senga dangasalik, yolg'onchilik
yopishib olibdi, undan qutulish o'zingiga bog'liq, - dedi qat'iylik bilan.

Boqivoy uyatdan qizarib ketdi. Keyin esa xonasiga kirib darslarini bajarishga
kirishibdi. «Ey, ertaga qilarsan, hozir mazza qilib dam ol, koptok tep», degan ovozlarga
parvo qilmabdi. Chunki uni yalqovlik chalg'itayotganini bilib olgandi. Yolg'onchilikni
esa zinhor yoniga yo'latmaydigan bo'lib, tez orada esa yana faol o'quvchiga aylandi.

SevARBek ELBOYEV,

poytaxtimizning Yakkasaroy tumanidagi
118-umumta'lum mabitining 4-«A» sinf o'quvchisi

Umid nima qilishni bilmay, atrofga alangladi. Yerda yotgan katta toshni
olib, unga oldi. It g'azabronk irilliadi, lekin joyidan qo'z'g'almadidi. Bu it shiyon
qorovuli - Baxtiyor otaniki edi. U otaning doimiy hamrohi. Umid bor ovozi
bilan Baxtiyor otani chaqira boshladidi. Ota shu orada ekan, halloslagancha
yetib keldi. Yig'lamisrab turgan Umidni ko'rdi-yu, gap nimada ekanligini
bilgach, hayron bo'ldi.

- Voy, iti tushmagur-ey, hech bunaqa odati yo'q edi-yu, - dedi atrofga
alanglab. Shunda otaning ko'zi simyog'ochdan uzilib, yerdal osilib yotgan
elektro simiga tushdi. Umid ham, Baxtiyor ota ham itning nima sababdan
bunday qilganini darhol tushunishdi.

Shu voqeadean keyin Umid itlarni yaxshi ko'rib qoldi va o'zi ham kuchuk
bola asrab oldi.

Jamshid EGAMBERGANOV,
Toshkent viloyati, Chirchiq shahridagi
21-umumta'lum mabitining 6-«A» sinf o'quvchisi

«UMID NIHOLLARI» -

YOSHLIK VA SPORT BAYRAMI

Ko'p yillardan beri respublikamiz umumta'lim maktablar o'rtaida an'anaviy tarzda o'tkazib kelinayotgan «Umid nihollari» sport musobaqlari minglab sportchi-yoshlarni kashf etayotgani shubhasiz. Bu yilgi musobaqaning final bosqichi katta bayram tantanalariga aylanib ketdi.



TOSHKENT SHAHRI.
Poytaxtimizning Yunusobod tumanida j o y l a s h g a n «O'zbekiston» sport majmuasida «Umid nihollari – 2015» sport musobaqalarining Toshken shahar final bosqichi bo'lib o'tdi. 56 mingdan ortiq o'quvchilar ishtirok etgan mazkur musobaqada 25 ming 548 nafar qizlar ishtiroki yurtimizda

qizlar sportiga berilayotgan yuksak e'tibordan dalolatdir.

Ishtirokchilar, asosan, Olimpiada dasturidan joy olgan sportning o'n yetti turi – basketbol, voleybol, badiiy va sport gimnastikasi, badminton, boks, dzyudo, taekvando, erkin va yunon-rum kurashi, yengil atletika, og'ir atletika, stol tennis, suzish, futbol, shaxmat, qo'l to'pi bo'yicha bellashishi. Orziqib kutilgan daqiqalar fursati yetdi. G'oliblarni taqdirlash marosimi hayajonlarga boy bo'ldi. Birinch o'rinni egallagan Chilonzor tumanı jamoasi Prezidentimiz sovg'asi – «Damas» automobili bilan taqdirlandi. Yunusobod tumanı vakillari ikkinchi, uchtepaliqlar uchinchi o'ringa munosib topildi.



BUXORO VILOYATI. Ushbu musobaqanining ilk bosqichlarida kuch sinashgan o'n mingdan ziyod qatnashchilarning 128 nafari finalga yetib keldi. Natijalar tahsil qilinganda Buxoro shahri vakillari umumjamoja hisobida birinchi o'rinni egallashi. Vobkentliklar ikkinchi, Shofirkon tuman yoshlari uchinchi o'rinni qo'lg'a kiritishdi. Buxoro shahrida sportning barcha turlari qatori erkin kurash, ayniqsa, badiiy gimnastika maktabining yetakchi o'rinda ekanligi shu kunga qadar o'quvchilar orasidan nafaqat mamlakat, balki Osiyo championlarining yetishib chiqqanligi mazkur musobaqada g'oliblikni qo'lg'a kiritishiga asos bo'lgani tabibiy, albatta.

SURXONDARYO VILOYATI. «Umid nihollari» sport musobaqasining final bosqichi Surxondaryo viloyatida keng nishonlandi. Yakuniy hisobga ko'ra, Termiz shahri vakillari birinchi, Qumqo'rg'on tumanı sportchi-yoshlari ikkinchi hamda jarqo'rg'onliklar uchinchi o'ringa munosib topildi. G'olib jamoa orasida badiiy gimnastika bo'yicha yuqori natijani ko'sratgan 2-umumta'lim maktabi o'quvchisi Farida Ismatovaning borligi quvonalaridir.

Darhaqiqat, «Umid nihollari – 2015» sport musobaqalarining final bosqichi jismonan barkamol, ma'nан yetuk yangi nihollarni kashf etdi. Yosh sportchilarning betakror namoyishi dillarda uzoq yillar muhrlanib qolishi, shubhasiz!

NURBEK tayyorladi



7

Yaqinda Toshkent shahrida badiiy gimnastika bo'yicha jahon kubogi bosqichi va «Happy Caravan – 2015» xalqaro turniri bo'lib o'tdi.

G'ALABA MUBORAK!

Dunyoning yigirmadan ziyod davlatidan yuzga yaqin gimnastikachi ishtirok etgan mazkur musobaqada ishtirokchilar arg'amchi, halqa, to'p, bulava va tasma bilan mashq bajarishda o'z mahoratlarni namoyish etishdi. Ularning musiqaga mos ritmda nafis va yengil harakatlar ijrosi esa muxlislarga o'zgacha zavq bag'ishladi.

Musobaqada hamyurtimiz Anastasiya Serdyukova bulavada mashq bajarish bo'yicha bronza medalini qo'lg'a kiritdi. «Happy Caravan» xalqaro turnirining final bosqichida ishtirok etgan Sabina Toshkenboyeva ko'pkurash va alohida gimnastika predmetlarida mashq bajarish bo'yicha jami 4 ta bronza medali bilan taqdirlandi. Halqa yordamida mashq bajargan Nuriniso Usmonova esa uchinchi o'rinni egalladi.

Mahmudjon AZIMOV

Buxoro viloyatining Shofirkon tumanidagi 12-bolalar va o'smirlar sport maktabi nafaqat viloyatda, balki respublikamizda ham o'z nufuziga ega ta'lim maskanlaridan biridir.

YANGI ZAFARLAR SARI

Bu yerda tarbiyalanuvchilar bilan sportning deyarli barcha turi bo'yicha mashq'ulotlar olib boriladi. Joriy o'quv yilida 130 nafar o'quvchilarga 1-yoshlar,



150 nafariga 2-yoshlar hamda 196 nafariga 3-yoshlar sport darajasi unvonining berilishi maktab sportchilarining qo'lg'a kiritgan yuqori natijalaridan dalolatdir.

Yaqinda Toshkent viloyatining Piskent tumanida bo'lib o'tgan 2003–2004-yillarda tug'ilgan o'smirlar o'rtaсидаги «Kombat aykido» bo'yicha Respublika birinchiligidagi sport maktabi murabbiyi Vali Husenov shogirdlari Dilshod Qurbonov va Sherzod Ilyosov bilan ishtirok etdi. Musobaqaning birinchi kunida Sherzod 25 kg. vaznda qashqadaryolik kurashchidan ustun keldi. Dilshod esa 35 kg. vazn toifasida Jizzax viloyati vakilini mag'lub etdi. Murabbiylar o'rtaсидаги bellashuvda esa Vali Husenovning poytaxtlik raqibi ustidan qo'li baland keldi. To'rt kunlik musobaqanining final bosqichida Sherzod va Dilshod toshkentlik kurashchilarni dog'da qoldirishdi. Vali aka ham 70 kg. vaznda shogirdlariga o'mnak ko'sratib, samarqandlik murabbiyni mag'lub etdi. O'zbekiston championi bo'lgan buxorolik kurashchilar Qozog'istonda bo'lib o'tadigan xalqaro championatda qatnashish huquqini qo'lg'a kiritdi.

Ulug'bek SAIDOV

BEG'UBOR DAMLAR ZAVQI



Abdulboriy va Abdullatif:
— Suratlari ko'p kitob baribir yaxshi-da!




Poylaringda gullaydi bahor,
Kulgulari shirin bolajon!

«Gulzor»



Aziza QARSHIBOYEVA,
poytaxtimizning 307-umumta'l'm maktabi o'quvchisi

BO'SH O'TIRMAY, BOSH QOTIR!



Quyida ta'riflari bayon etilib, chizmadagi «Bola» so'zi bilan boshlanuvchi nomlarning to'liq atamasini eniga yozish bilan topqirilingizni sinab ko'ring.

1. Oybek qissasi. 2. O'zbekiston xalq baxshisi. 3. Telekanallardan biri. 4. Hamid Olimjon dostonidan: «Bola... yillarimda, uyqusiz tunlarimda...». 5. Xonanda Tohir Sodiqov guruhi. 6. Xudoyarberdi To'xtaboyev romani nomidan: «Besh bola... yigitcha». 7. Agata Kristi asaridan: «O'nta negr bola...». 8. Asalarining yana bir nomi: bola...

Husan ORIPOV tuzdi

Bosh muharrir
Feruza ADILOVA

Muassislar:
O'zbekiston Matbuot va axborot agentligi,
O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi,
«KAMOLOT» yoshlar ijtimoiy harakati
Markaziy Kengashsi,
«SOG'LOM ALVOR UCHUN» hukumatga
qarashli bo'lmagan xalqaro saryriya fondi.

Gazeta O'zbekiston Matbuot
va axborot agentligida
0208-raqam bilan 2007-yil
2-fevralda ro'yxatdan o'tgan.

ORZULAR MASKANI

Poytaxtimizning Yunusobod tumanidagi 133-MTMda 319 nafar bolajonlar 14 ta guruhda tarbiyalanishmoqda.

«Orzular maskani» deb ataluvchi mazkur ta'lim muassasa-sida Dilfuza Malikova, Ra'no Inog'omxo'jayeva, Saodat Abdujabborova singari ta'lim fidoyilarini murg'ak qalb egalarining olamni anglashi, ijtimoiy hayotning boshlang'ich muhitiga tayyorlanishida bor pedagogik mahoratini qo'llamoqda.

Maskanda sog'lomlashtirish mashg'ulotlari muntazam olib borildi. Futbol, shashka, milliy kurash to'garaklari bilan bir qatorda haftada ikki marta

gimnastika

mashq-

lari olib

boriladi. Diyora Abduqodirova, Uldan Boypo'latova, Nargiza Raimova hamda Mavjuda Toshmuhammedova murabbiyiligida tarbiyalanuvchilar «Sog'lomjon - polvonjon» tuman musobaqalarida faol ishtiroy etib kelishadi. Bundan tashqari, musiqa rahbari Muxtabar Karimova boshchiligidagi yosh iste'doddalar «Atlas», «Binafsha», «Humo» festivalarida faxrla o'tinami egallashdi.

NURBEK



Bayram arafasida poy-taxtimizning Sergeli tumanidagi 305-MTM bolajonlarning quvonch-u shodliklariiga to'ldi.



TOPISHMOQLAR



Gugurt qutidek kelar,
Uzoqni yaqin qilar.
Raqamni terganing chog',
Hatto bo'lar o'yinchoq.

Mazali, qordek oppoq,
Uning nomi ...



Ninasi ko'p, tikolmaysan,
Koptok qilib tepolmaysan.

Manzura
UBAYDULLAYEVA
tayyorladi

1-iyun 2015

TAHIR HAY'ATI:
Omonulla YUNUSOV,
Abdug'anji XOLBEKOV,
Bahodir G'ANIYEV,
Svetlana INOMOVA,
Murtazov SULTONOV,
Zoir ISAJONOV,
Vahobjon RAJAPOV,
Zikrilla TESHABOYEV,
Feruza JALILOVA,
Feruz MATYOQUBOV
(mas'ul kotib)

Navbatchi
muharrir
Nodira
NAZAROVA
Rassom
Feruzbek
KAMOL o'g'li

Manzilimiz:
Toshkent shahri,
Navoiy ko'chasi, 30-uy.
Indeks: 100129.
Obuna indeksi: 198.
e-mail:
info@tongyulduzi.uz
www.tongyulduzi.uz

Tel/faks: 244-63-08
Tel/faks:
(99871) 244-38-10

«O'zbekiston»
NMUda chop etildi.
Tahririyatga kelgan barcha
qo'lyozmalar tahrir qilinadi,
mualiflarga qaytarilmaydi.
Haftaning dushanba kuni
chiqadi.
Shakli A-3, 2 bosma taboq.
ISSN 2010-6092
Adadi – 46015
Buyurtma – S 3044